

O‘ZBEKISTON TARIXI MUZEYIDA ARXEOLOGIK ASHYOLARNI RESTAVRATSIYASIGA DOIR.

S.B. Boymirzayev

Alfraganus universiteti

(PhD), katta o‘qituvchi

boymirzayevsarvar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondida saqlanayotgan va ekspozitsiyada namoyish etilayotgan arxeologik ashyolarni restavratsiya qilishda muzeyda faoliyat yuritgan restavratorlarning faoliyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Restavratsiya, ashyo, fond, restavrator, sopol, metall, xavfsizlik, laboratoriya, xalqaro seminar.

Аннотация: В данной статье описана деятельность реставраторов, работавших в музее при реставрации археологических предметов, хранящихся в археологическом фонде Государственного музея истории Узбекистана и представленных в экспозиции.

Ключевые слова: Реставрация, предмет, фонд, реставратор, керамика, металл, безопасность, лаборатория, международный семинар.

Abstract: This article describes the activities of restorers who worked in the museum during the restoration of archaeological objects stored in the archaeological fund of the State Museum of History of Uzbekistan and presented in the exhibition.

Key words: Restoration, object, fund, restorer, ceramics, metal, safety, laboratory, international seminar.

Dunyoning yirik muzeylarida tarix va arxeologiya fondlarining tashkil etilishi, arxeologik ashyolarni saqlash, ularni inventarizatsiyadan o‘tkazish, lozim bo‘lsa restavratsiya qilish va ekspozitsiyada namoyish etish bilan bog‘liq

masalalarni har tomonlama o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Arxeologik fondlarning tadqiqi, tarixiy ahamiyati, arxeologik ekspozitsiyani yaratish, fond kolleksiyalarini to'plash, saqlash, ta'mirlash va namoyish etish kabi masalalar muzeylarning muhim va asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Mingyillik tarix haqida ma'lumot beradigan arxeologik topilmalar arxeolog-olimlarning say-yarakatlari bilan topilgandan so'ng tarix muzeylari va ilmiy muassasalarga topshiriladi. Ashyolarni konservatsiya qilish, restavratsiya qilish hamda keng jamoatchilikka namoyish etish muzeyning asosiy vazifasiga aylanadi. Topilma uzoq vaqt mobaynida tuproq ostida saqlanganligi yoki ma'lum bir qismi saqlanib qolmaganligi uchun, o'rganilayotgan ashyo haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida restavratsiya ishlari amalga oshiriladi.

Restavratsiya – san'at asarlarini va boshqa moddiy madaniy yodgorlik buyumlarini buzilishini oldini olish, ularni uzoq vaqt saqlashni optimal holatiga erishish, shuningdek, ularni ta'mirlash hamda kelgusida avval noma'lum bo'lgan xususiyatlarni ochishga qaratilgan kompleks tadbirlarga aytiladi [1, 6-7]. Restavratsiya biror-bir obyektning yetmagan qismlarini to'ldirish, mustahkamligini oshirish va ekspozitsiya holatiga keltirish ham demakdir.

O'zbekistonda moddiy va madaniy yodgorliklarni konservatsiya va restavratsiya qilish tarixi bevosita arxeologik qazishmalar bilan bog'liq. Bu boradagi ishlar XX asr boshlaridan boshlangan. Jumladan, 1913-yilda V.L. Vyatkin Samarqanddagi Afrosiyob shahristonida arxeologik qazishmalarda ilk bor devoriy surat bo'laklarini topadi. Afsuski o'sha paytda konservatsiya qilish moddalar va uslubi yetarlicha bo'lmaganligi tufayli ular ochilgandan so'ng to'kilib ketdi. Devoriy suratlarni ochish paytida bo'lgan rassom B.G. Romberg devoriy rasmlarning o'ziga qarab akvarel bo'yoq yordamida xomaki tasviri chizib oladi [2, 6].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab arxeologik tadqiqotlar ko'lami kengaydi. Endilikda mutaxassislar oldida nafaqat ularni ilmiy tadqiq qilish, balki

saqlash va restavratsiya qilish vazifasi turardi. Shu maqsadda mamlakatdagi yirik muzeylar va ilmiy-tadqiqot institutlarida restavratsiya laboratoriyalar tashkil qilina boshlandi. 1947-yilda Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasiga qarashli Tarix va arxeologiya instituti qoshida arxeologik yodgorliklarini ta'mirlash va konservatsiya qilish laboratoriyasi tashkil topdi [3, 65]. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan O'zbekistonda yagona restavratsiya va konservatsiya markazi Koreya Respublikasining «Koreya madaniy meros fondi»ning loihasi asosida Samarqand arxeologiya institutida 2022-yil 4-avgust sanasida tashkil etildi.

Restavratsiya ishlarini amalga oshirish uchun bir qator maxsus kimyoviy moddalar, xom-ashyolar va asbob-uskunalar zarur bo'ladi. Bundan tashqari, alohida ahamiyat berilishi zarur bo'lgan jihat bu texnika xavfsizlik qoidalaridir. Ishning texnik tomonlari talabga javob berganda restavrator ishning asosiy qismiga o'tiladi.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyida 1920-yillardan muntazam restavratorlar faoliyat yuritgan bo'lsada ba'zan alohida bo'lim, ba'zan boshqa bir bo'limning tarkibida faoliyat ish yuritgan. 1920-1930-yillarda o'z mehnat faoliyatini muzeyda olib borgan dastlabki restavratorlardan biri M.B. Stolyarov bo'lib ekspozitsiya zaliga qo'yiladigan arxeologik eksponatlarni restavratsiya qilish zarur bo'lganlarini ta'mirlagan [4].

1970-2021-yillarda muzeyda alohida restavratsiya va konservatsiya bo'limi faoliyat olib borgan. 2012-yilning 1-mart sanasida 6 kishidan iborat restavratsiya kengash tashkil etilgan. O'zbekiston tarixi davlat muzeyida 2012-2013-yillarning sentabr-oktabr oylarida professor Aoke Shigeo boshchiligida trening o'tkazilgan [5].

Muzeyda yarim asrdan buyon turli lavozimlarda faoliyat yuritayotgan arxeolog, restavrator V.S. Minasyansning kasbiy faoliyatiga alohida to'xtalib o'tish o'rinli. Bu inson bir necha bor arxeologik ekspidetsiyalarda ishtirok etgan. Muzey Arxeologiya fondiga uzoq yillar davomida rahbarlik qilgan. Ushbu davrda arxeologiya fondida saqlanayotgan arxeologik ashyolarni bir necha yuztasini

restavratsiya qilgan. Jumladan, ostadonlar, terrakota haykalchalari, sopol idishlar, metall buyumlar.

Bugungi kunda muzeyda V. Minasyans, N. Qalandarova, D. Raupova kabi restavratorlar ham faoliyat yurimoqda. Ular O'zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondidagi loydan yasalgan ashyolarini restavratsiya qilish, numizmatika fondi tangalarini konservatsiya qilish ishlari bilan shug'ullanmoqda. Restavratorlar muzeyda tashkil etilgan komissiyaning xulosasiga ko'ra tanlab olingan arxeologiya fondi ashyolarini dalolatnoma asosida qabul qilib oladi. Restavratsiya ishlari tugaganidan so'ng Kengash xulosasiga ko'ra dalolatnoma tuzilib, arxeologiya fondi xazinaboniga topshiriladi. Ular restavratsiya ishini boshlashdan oldin va tugatganda albatta ashyoning rasmini oladilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, arxeologiya fondida saqlanayotgan ashyolarning o'n besh mingdan ziyodi restavratsiya ishlaridan so'ng muzey ekspozitsiyasidan joy olishi mumkin. Shuning uchun muzeyga barcha sharoitlarga ega restavratsiya markazi hamda tajribali xodimlar zarur.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi restavratori V. Minasyans arxeologiya va numizmatika fondi ashyolari bilan bir qatorda muzey kutubxonasida saqlanayotgan bir nechta kitoblarni texnik tamirlab kelmoqda. N. Qalandarovaning o'zi birgina 2021-yilda 20 dan ortiq arxeologik ashyoni ta'mirladi. D. Raupovanning ish jarayonida tangalar dastlab trilon B ximikatiga solinadi. 5-10 kun turadi. Keyin uni olib yuviladi, so'ng mexanik yo'l bilan tozaladi. Yana qolgan zanglari toza bo'lgunicha shu tarzda jarayon qaytariladi.

Sopol buyumlarni ta'minlashda birinchi qadam bu sopol idish yoki buyumning shaklini aniqlash va ta'minlash jarayoniga qanday yondashishni hal qilish uchun uni ko'zdan kechirishdir. Agar buyum ilgari tamirlangan bo'lsa unda turli hajmda yelim, gipslangan joylar bo'yalgan bo'lishi yoki boshqa dog' izlari qolgan bo'lishi mumkin. Agar shunday sabablar bo'lsa buyum tozalanmaguncha ta'mirlash rejasini tuzish qiyin. Har qanday buyumni tozalash jarayoni boshlashdan oldin, tozalash qanchalik zarurligini, qanday usullar va materiallardan foydalanish kerakligini aniqlashtirib olish lozim.

Keramika buyumlarini to'g'ri tiklash uchun avval tiklash vaqtini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Agar qotish vaqti qisqa bo'lsa, yopishtirilgan tomonlar qolipdan egilib qolmasligi uchun jarayon ehtiyotkorlik bilan bajarilishi kerak. Agar bu uzoq vaqt talab qilsa, egilishni oldini olish uchun konsolidatsiya qilingan qism to'liq mustahkam bo'lgunga qadar topilmani lentalar, qisqichlar va boshqalar bilan vaqtincha mahkamlash kerak. Bundan tashqari inson salomatligiga kamroq ta'sir ko'rsatishi va xavfsizligi uchun yopishtiruvchi moddani tanlash muhim mezon bo'lishi kerak. Zaharli yopishtiruvchi moddalarni qo'llaganda, himoya vositasini kiyish va vazifani xavfsizlik uskunalarini bo'lgan joyda bajarish maqsadga muvofiq [6].

Arxeologik ashyolarning restavratsiyasi va konservatsiyasi bir biri bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Sopol idish va buyumlarni yasashda asosan qizil loy, oq loy va shamot (avval pishirilib keyin maydalangan loydir) ishlatiladi. Sopol buyumlarni ta'mirlash uni ishlab chiqarish boshlangan davrdan yo'lga qo'yilgan deyish mumkin. Keyinchalik kulolchilik mahsulotlarni ayniqsa, chinni buyumlarni ta'minlashda alohida kasb etadi shakllangan. Ularning ishi asosan singan jumrak, dasta va qopqoqlarni metall plastina va simlar bilan yamashdan iborat bo'lgan. Ular ishlatgan asboblari va uning ta'minlash usuli oddiy bo'lsada, buyumlar sifatli tamirlanganligi uchun uzoq vaqt davomida xizmat qilgan.

Bugungi kunda xalqaro aloqalarning kengayishi sharoitida xorijlik mutaxassislar tajribasini hisobga olgan holda restavratsiya usullarini takomillashtirish imkoniyatlari yaratildi. Muzeyning bir nechta xodimlari arxeologik ashyolarni restavratsiyasiga bag'ishlagan xalqaro seminar treninglarda munosib ishtirok etib kelmoqdalar. YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani davlatlari (ACCU) madaniyat markazi tomonidan Yaponiyaning Nara shahrida restavratsiyaning zamonaviy metodlarini o'rganish bo'yicha, Berlin shahrida joylashgan Germaniya arxeologiya instituti (Deutsches Archaologisches Institut) va Mangeym shahrida joylashgan Reys-Engelxorn muzeyida (The Reiss Engelhorn

Museum, or Reiss-Engelhorn-Museen) restavratsiya va muzeyshunoslik yoʻnalishi boʻyicha, Gerda Xengel fondi tashabbusi bilan Germaniya arxeologiya instituti (Deutsches Archäologisches Institut) va Eybax shahrida joylashgan Germaniya Fil suyagi muzeyida restavratsiya boʻyicha trening, 2018-yil 13-23-noyabr kunlari Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyining ilmiy ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosari O.Y. Aripdjanov Xitoy xalq respublikasining Sian shahrida ICOMOS ICC tomonidan tashkil etilgan «Ipak Yoʻlida madaniy merosni saqlash» nomli treningda ishtirok etdilar [7].

2018 – 2022-yillarning sentyabr oyida Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi hamda Chikago universitetining Sharq instituti bilan hamkorlikda «Arxeologik yodgorliklarni saqlash va taʼmirlash» boʻyicha Markaziy Osiyo muzeylari mutaxassislari uchun seminar trening oʻtkazildi [8]. Unda O. Aripdjanov, R. Gulyamov, V. Minasyans, T. Norkobilav, S. Boymirzayev, N. Qalandarova, M. Safayev kabi muzey ilmiy xodimlari ishtirok etdilar. Seminarda yoritilgan mavzular xalqaro miqyosda tan olingan standartlar va artefakt turlarining asosiy sinflari va Markaziy Osiyo Respublikalari Milliy muzeylarida mavjud boʻlgan arxeologik ashyolar bilan ishlash usullarini oʻrgatish uchun moʻljallangan. Bu milliy merosni muhofaza qilish boʻyicha mutaxassislarni oʻqitish uchun birlashtiradigan va arxeologik ashyolarni saqlash boʻyicha standartlashtirilgan eng yaxshi tajribalarning umumiy toʻplamini ishlab chiqadigan birinchi tizimli dasturdir. Dasturning amalga oshirilishi madaniy merosni boshqarish sohasida institutsional hamkorlikni ragʻbatlantirish uchun besh mamlakat Milliy muzeylari oʻrtasida aloqalarni oʻrnatishga qaratilgan.

Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyida boʻlib oʻtgan ishtirokchilar maxsus usullar boʻyicha treningdan tashqari, obyektning baholash usullari va muayyan holatlarda qoʻllash uchun qaysi maxsus usullari eng mos kelishini aniqlash boʻyicha oʻqitildi. Tosh, suyak, fil suyagi kabi gʻovak arxeologik ashyolarning ulardagi eruvchan tuzlar tufayli zararlanish sabablari, tuzlarni aniqlash usullari, ularni tozalashning anʼanaviy

usullari, muzey omborlarida saqlash sharoitlari ko'rib chiqildi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi Arxeologiya fondida saqlanayotgan 1-2-asrlarga oid Fayoztepa buddaviy ibodatxonasi va monastir majmuasidan olingan ashyolar misolida devor rasmlari va haykaltaroshlik parchalarini konservatsiyalash xususiyatlari ko'rib chiqildi.

Seminarda qadimiy va tarixiy kulolchilik buyumlarini qayta tiklash mavzusi o'rganildi. Ushbu modul past olovli sopol idishlardan tortib chinnigacha bo'lgan keng doiradagi keramika materiallariga qaratilgan. Nazariy va amaliy ko'rsatmalarda sopol buyumlarning mohiyati, ishlab chiqarish texnikasi, ishlab chiqarish usullari, buzilishi, shuningdek, qayta ishlash va uzoq muddatli saqlashning asosiy jihatlari haqida ma'lumot berildi va muhokama qilindi. Ishtirokchilarga xom ashyo, qoliplash va pishirish, me'moriy plitkalardagi keramikaning o'ziga xos turlari, keramika mahsulotlarini saqlash etikasi, tozalash, mustahkamlash, tuzsizlantirish, topilmalarni ta'mirlash, keramika buyumlarini saqlash tendensiyalari kabi o'ziga xos mavzular taqdim etildi. Amaliy mashg'ulotlar muzey ashyolarini o'rganish, shuningdek, zamonaviy loydan yasalgan buyumlar va sirlangan plitkalarga ishlov berishni taqlid qilish imkonini berdi.

Muhokama qilingan mavzulardan yana biri qadimgi va tarixiy metallarni (mis, qo'rg'oshin, oltin, qalay, kumush, nikel, temir, rux, alyuminiy) asrab-avaylash edi. Metallar, ularning tuzilishi, rudalardan kelib chiqishi va eritilishi, vaqt o'tishi bilan metallardan foydalanishning qisqacha tarixi, metallga ishlov berishning asosiy texnologiyalari va ularning rivojlanishi tasvirlangan, korroziyaga uchragan joylarni tiklash usullari (sirtni tozalash, kimyoviy, elektrokimyoviy vositalar bilan faol korroziyaga ishlov berish) muhokama qilindi.

Har bir seminarda yoritilgan mavzular xalqaro miqyosda tan olingan standartlar va artefakt turlarining asosiy sinflari va Markaziy Osiyo respublikalari Milliy muzeylarining ko'p qismini tashkil etuvchi arxeologik materiallar bilan ishlash usullarini o'rgatish uchun mo'ljallangan.

O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimlari YUNESKONing Madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik byurosi, Osiyo – Tinch okeani madaniy markazi (Yaponiya, Nara) 2019.07.22 – 2019.08.09 kunlari tashkil etilgan «Muzey ashyolarining restavratsiyasi va konservatsiyasi mavzusidagi treyning»da ishtirok etdilar [9].

Mazkur treyning davomida arxeologiya fondi ashyolarini saqlashda ishlatiladigan tehnalogiyalar ko'rsatildi. Gango-dzi nomidagi madaniy qadriyatlar ilmiy tadqiqot institutida olib borilayotgan restavratsiya jarayoni bilan tanishtirildi. Bu yerda treyning ishtirokchilari bevosita metal va sopol buymlar restavratsiyasida ishtirok etdi. Ekspozitlarning 3D formatini yaratish bo'yicha leksiya ishtirok etildi. Arxeologik ekspozitlarni kataloglarini yaratish uchun ularni fotosyomkaga olish jarayoni haqida master-klas o'tkazildi [10].

Seminar-treninglarda o'rganilgan va boshqa muzey restavratorlari bilan almashilgan tajribalar natijasida to'plangan bilimlar bugungi kunda O'zbekiston tarix davlat muzeyi Arxeologiya fondida mavjud bo'lgan restavratsiya va konservatsiya ishlariga muxtoj bo'lgan ashyolarni tamirlash jarayonida muntazam qo'llanib kelinmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, muzey Arxeologiya fondida saqlanayotgan restavratsiya va konservatsiya ishlarini talab etadigan bir qancha noyob, ma'lum bir madaniyat haqida boy ma'lumot beradigan ashyolar mavjud. Ularni saqlash bilan bir qatorda ekspozitsiyada namoyish etish uchun qayta tiklash zarur. Bu o'z o'zidan sohaga mutaxassislar zarurligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda bir nechta oliy o'quv yurtlarida arxeologik buyumlar restavrotori deb nomlangan mutaxassislar tayyorlanmoqda lekin, ularga taklif etilayotgan maoshning kamligi uchun bu sohani emas balki, xususiy sohalarda ishlashni afzal ko'rmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Выгонная А., Калнин В., Цейтлина М. Основы реставрации... Монография. Дизайн ПРО. 2000. – С. 6-7.
2. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. «Фан». – Т., 1975. – С. 6.
3. Абдураззаков А.А., Камбаров М.К. Реставрация настенных росписей Афрасиаба. «Фан». – Т., 1975. – С. 65.
4. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi rassom va restavratori Vazgen Sosovich Minasyans bilan o‘tkazilgan suhbat. 24.11.2021 y.
5. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi rassom va restavratori Vazgen Sosovich Minasyans bilan o‘tkazilgan suhbat. 24.11.2021 y.
6. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi restavratori N. Qalandarova bilan o‘tkazilgan suhbatdan. 13.09.2022 y.
7. Ўзбекистон тарихи давлат музейининг жорий архиви (Ўзбекистон тарихи давлат музейининг 2019 йиллик хисоботи).
8. Ўзбекистон тарихи давлат музейининг жорий архиви (Ўзбекистон тарихи давлат музейининг 2021 йиллик хисоботи).
9. Ўзбекистон тарихи давлат музейининг жорий архиви (Ўзбекистон тарихи давлат музейининг 2019 йиллик хисоботи).
10. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi (PhD) D. Karimova bilan o‘tkazilgan suhbatdan. 18.05.2022 y.